

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

**O'ZBEK FILOLOGIYASI
kafedrasi**

Adabiyot nazariyasi *fanidan*

REFERAT

Mavzu: Badiiy asarda psixologizm

Bajardi: Tajimuradova N

Qabul qildi: _____

Nukus - 2013

Mavzu: Badiiy asarda psixologizm

Reja:

- 1. O'zbek romanlarida psixologizm printsiplari**
- 2. «Muvozanat» romanida ruhiy tahlil**
- 3. Roman tahlili**

«Har qanday milliy iktisodiyotning ravnaqi unda sanoatning rivojlanganlik darajasiga qarab baholanganidek, har qanday milliy adabiyotning insoniyat estetik tafakkuriga qo'shgan hissassi ham ko'proq undagi romanchilikning salmog'i bilan belgilanadi» (Q.Yo'ldoshev) ekan, demak milliy romanchiligimizdagi sifat o'zgarishlari avvalo, shakl va mazmun yangiligida, uning hayotdagi faoliyat bilan uyg'unligida kechayotgani ayni haqiqatdir.

Romanchilikda badiiy psixologizm muammosi shu choqqacha deyarli to'liq o'rganilgan emas, shunday bo'lsa-da, ustoz H.Umurov, «Psixologizm va o'zbek romanchiligi» doktorlik dissertatsiyasida mashhur «O'tgan kunlar» romanini tahlil qiladi, hamda shu misolida romanda psixologik jihatdan ochib beradi. Oradan ko'p yillar o'tib, juda ko'plab romanlar yaratildi. Lekin shular ichida juda katta shov-shuvga sabab bo'lgan Ulug'bek Hamdamning «Muvozanat» romani yaratildi. Romanda YUsuf, Amir, Mirazim, Said, Zahro, Odil aka, Ergash, Manzura, Oygul kabi xilma-xil personajlar borki, ularning har biri ruxiy iztiroblar ichida yashaydi. Romandagi bir necha psixologik vaziyatlarni ularning xatti-harakati yordamida tahlil qilib ko'ramiz.

Ustoz Hotam Umurov fikrlariga tayanadigan bo'lsak, «Filosoflarning aytishicha «psixik narsa va ong vash u kabilar materiyaning, ya'ni fizik narsaning oliy mahsulidir. Inson miyasi deb ataladigan juda murakkab materiya parchasining funktsiyasidir. Demak, voqelikning miyada aks ettirilishi psixikadir. Psixika (psixika degan termin gerecha psyuxe so'zidan olingan bo'lib ruh degan ma'noni bildiradi)ning moddiy asosi har doim, biron konkret odamga tegishli bo'lgani tufayli ana shu odamning ruhiy hayoti (ongi, extiyoji, xayoli, orzusi, hissiyoti, kayfiyati, ehtirosi, irodasi, idellari, ishtiyoqi, qiziqishi, odati, temramenti, xarakteri) adabiyotda o'zining tasvirini topishi tabiiydir. Xayotda bo'lganidek, adabiyotda ham odam o'zining individual psixologik xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi.»

SHunday ekan, psixologizm badiiy asarning o'zagini tashkil etadi. Har bir asarda badiiy psixologizm o'z aksini ko'rsatadi. CHunki usiz asar hech kanday kishi qalibag ta'sir etmaydi. SHu sababli ham badiiy psixologizm deb yuritiladi.

CHunonchi, XX asr adabiyotida juda ko'plab romanlar yaratildi, shular orasida psixologizm etarlicha talqin kilinmagan yoki qaxramon xarakteri ochib berilmagan jihatlarni uchrashi tabiiydir. Istiqlol davriga kelib, yuzlab romanlar yaratilgan bo'lsa, shulardan bor yo'g'i o'naginasini biz juda yaxshi sevib mutolla qilamiz. Qolganlari esa unchalik o'qimishli asar emasdir.

Masalan, O'tkir Hoshimovning barcha romanlari hozirgacha sevib mutolla qilinadi. «Ikki eshik orasi», «Tushda kechgan umrlar», Odil YOqubovning «Ulug'bek xazinasini», «Diyonat», «Ko'hna dunyo» romanlarida badiiy psixologizm ancha o'rinli qo'llanilgan. SHu bois ham hanuzgacha o'z qadrini yo'qotmay kitobxonlarning ma'naviy bisotini boyitib kelmoqda.

Katta nasriy janr sanalmish roman miqyosiga batafsillikka intilishi samarasi emas, balki, insonni tasvirlashda psixologik teranlikka urinish natijasi o'laroq yuzaga kelgan estetik hodisadir. U odamni borliqqa, ro'y berayotgan voqea, hodisalar orasida ovvorai sarson bo'lib yuradigan mavjudot emas, balki o'ziga xos takrorlanmas shaxs beadam chigal ruhiy olam egasi bo'lgan yaratilgan sifatida chuqurroq, miqyosliroq turli nuqtai nazarlardan turib tadqiq etish natijasi o'laroq paydo bo'lgan janridir.

Badiiy adabiyotning lirik janrlari hajmi, imkoniyatlarining cheklanganligi bois, epik va dramatik turdagi asarlar uchun memorat, ya'ni tarixiy voqealik hamda hayotiy tafsilot tasviri muhim bo'lganligi sababli ularda alohida insonning ichki olamni chuqur tadqiq etish bir muncha mushkuldir. Mohiyatiga ko'ra tashqi olamdan cho'ngroq, undan murakkabroq, beadamroq qadriyat bo'lmish alohida, alohida bir insonni tadqiq etish uchun badiiy adabiyotga maxsus bir janr kerak bo'ldi. Bu janr roman edi.

Romanda o'zga deyarli barcha adabiy janrlarda inson tasviriga olingan, voqea hodisalarga ilova edi. Negaki, bu janrlardagi asarlarda voqea-hodisa, sabab inson oqibatlarini borsa, ishtirokchi tarzda aks ettiriladi.

Badiiy tasvir uchun inson shaxs va uning o'ylari, ruxiyati emas, balki xatti-harakatlari muhim edi. Alohida olingan odam, uning taqdiri, o'ylari, kechinmalari faqat romandagina chuqur va atroflicha tekishirila boshladi. SHuning shaxsiyatiga,

tuyg'ulariga e'tibor kuchaydi. Tafsilotlar, voqea-hodisalar, inson ruhiyatining natijalari tarzda qarala boshladi. SHu tariqa romanda odam sabab maqomiga ko'tarildi.

Unda shaxsning murakkabdan-murakkab, chigaldan-chigal, betartibdan-betartib ruhiyati aks ettirila bordi. Insonning individual xususiyatlariga alohida e'tibor berganligi tufayli, roman alohida insonning eposiga aylandi. SHu holatdan kelib chiqib, dastlabki romanlar alohida shaxslarning dunyoga izohi sifatida yuzaga kelgan edi. YA'ni bu janrdagi asarlar jamiyat hayotidagi u yoki bu hodsaning iqtisodits-siyosiy-ilmii-ijtimoiy-falsafiy-ma'naviy-axloqiy-diniy yoki biologik va hakozi jihatlaridan odam nuqtai nazaridan tushunish va tushuntirish va qabul qilish tarzining tasviri sifatida yaratildi.

O'zbek romanchiligi ham o'z taraqqiyotining polifonik bosqichiga etib kelganiga o'xshaydi. Lekin mavjudot – mavjud qoliplardan chiqib ketishdan cho'chish, va ayni vaqtda avvalgidek yozish emasning ich-ichidan sezib turish dovdiratib qo'ydi.

Endilikda faqat mavzuning dolzarbligi, yoki tasvir yo'sining qiziqarli yoxud shirali ekanligi romanning umrzoqligini ta'minlay olamsligi anglab etildi. Har bir roman muallifda qahramonni tushinish va aks ettirishning birovnikiga mutlaqo o'xshamaydigan kontseptsiyasi talab etiladi. Odamning o'zigigagina xos nazar, bilan ko'rolmaydigan odam roman yoza olmasligi ayon bo'ladi.

CHunki roman voqea, ham g'oya ham balki boshqalarga o'xshamaydigan tirik odam ruhiyati tasviridir:

«Muhammadjon aka anchadan buyon yolg'iz yashaydi. Boshidan ko'p tarixlar kechdi. Lekin ularning hammasi o'tdi-ketdi. Endi o'z xayollari bilan tanho, yakkama-yakka qolgan. SHundanmi, qarilik alomatimi, ishqilib, keyingi vaqtlar tez-tez yuragi sanchib, ko'ngli bezovta bo'ladi. Telefon kilishi bilan shundoq ikki chaqirim narida joylashgan kasalxonadan g'iz etib kelgan «tez yordam» mashinasi he yo'q, be yo'q o'zi bilan olib ketadi. Keyin kasalxonada o'n-o'n besh kun yotib oladi... Bugun ham ana shunday bo'ldi: mana endi shiftga qarab yana o'sha

qadrdon do'sti – adoqsiz xayollar ummonida elkanlarini ochib olgan eski kemasida suzib boryapti...»¹⁰.

Ushbu parchada Muhammadjon akaning ruhiy iztiroblarini yozuvchi yuksak muhabbat bilan tasvirlaydi. SHu sababli yozuvchi psixologik kartina chizadi. Unda inson ichki iztiroblari xuddi oynadagi kabi kitobxonga ko'rinib turadi.

Nazarimizda «Muvozanat» romani shaxsga muayyan darajada hamon shaxsga ijtimoiy munosabatlarning mahsuli deb qarash aqidasidan kelib chiqayotgandek tuyuladi. Romanga qiyomat berishga uringan ayrim, tadqiqotchilar asarda inson qalbining nozik jilolari, fe'l atvori, ruhiyati, ko'ngil talpinishlari badiiy talqin etilgani, har bir personaj imkon qadar, o'z ziddiyatlari, fikr-o'ylari bilan ko'rsatilgani etarlicha e'tibor qaratishmaydi. Bugungi kunda roman uchun sujet asosini tashkil etgan voqealarning nechog'li dolzarbligi, qahramonlarning bugungi kun zamoni odami ekanligi u qadar muhim sanalmaydi. Adabiyotimizda o'tgan asarning 60 yillari ikkinchi yarmidayoq, inson shaxsiga yangicha yondashuv boshlangan edi. Muvozanat romani qahramonlarining hammasini ham, bir xil mezonlardan baholash mumkin emasligi, asoslanib aytish mumkinki, bugungi nasrimizda o'sha an'ana yana bir pogona yuksalgan. Zotan bugungi adabiyot o'ziga xos – badiiy-estetik hodisa. U tubdan o'zgargan, milliy ongning yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsulidir. Binobarin o'zlikni va olamni anglash, izohlash. Hamda tasvirlashda rang-barang yo'llardan borish taraqqiyot yo'sinlarining mupyyan shaxlarning ruhiyati, manzaralari orqali ifodalash imkoniyatlari kengaydi. Prof. Q.Yo'ldoshev ta'biri bilan aytganda «ijodkorning ko'ngil ishiga aylgan badiiy ijod o'zini Allohni tanishga uringan odamlar» mashg'ulotiga evrilgan.

Sobiq sho'rolar davrida adabiyotimiz mehnat kishisining o'z borlig'ini og'ir zahmatga bag'ishlanganini tasvirlab berdi. YAngi davr adabiyotining o'ziga xos jihati alohida inson shaxsiyatiga daxldor xususiyatlardir. Uning ruhiyati-hissiyoti ko'ngilga muhim qadriyatga aylanshida ko'rinadi. Bani odam bolasi nihoyatda

¹⁰ Улуғбек Ҳамдам. Мувозанат. –Т.: «Шарқ», 2007. 6-бет. Бу ҳақда қаранг: Бундан кейинги адабиёт бети қавс ичида берилади.

murakkab va anglash mushkul bo'lgan, yaratganning in'omi, insonning har bir lahzadagi, aniq holatlari real hayot va badiiy adabiyotda turlicha namoyon bo'ladi. Badiiyat tilga ko'chgan inson bilan real hayotdagi odamni aynanlashtirib bo'lmaydi.

Chunki ruhiyat qatlamlari nozik idrok etilgan manzaralar ifodasi hamisha ham mantiqiy qoliplarga sig'maydi. Fikrlovchi odamning ingichka tuyg'ulari, talay ismsiz manzaralar ham mavjudki, ular faqatgina anik ijodkorga daxldor mantiqqa tayanadi. Kitboxon intellektual darajasi jilla qursa, shunga muvofiqlashsagina o'z chiroyini ko'rsatadi. Aniq roman ifoda yo'siniga xos va tafakkur tarziga daxldor jihatlarni ilg'amoq esa ijod onlaridagi ruhiy iztiribni qalban tushunishlik mehnattalab yumushdir.

«Muvozanat» romani g'oyaviy asosini odamzodning ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy mohiyati tashkil etadi. Bu uchlik estetik qiymatning milliy an'analarga munosabati yordamida ijodiy yaxlitlik kasb etadi. Adibning xarakter yaratish mahorati va ularning ruhiy dunyosini kashf etish darajasi romaniy tafakkur tadriji an'analarning uzviy aloqadorligi mahsulidir. Fojeaviy vaziyat girdobida yashayotganligini anglayozmagan qahramon shaxsiyati badiiy detallashtirishda milliy o'zlik sari yuzlanadi. Romanda yana bir boshqa qahramon Amir ketma-ket hayotiy zarbalarga uchragan personaj turmush tarzi keskin o'zgaradi. Tevarakatrofdagilari xatti-harakatlariga baho berishga odatlangan Amir endi o'z mohiyati bilan to'qnashadi hamda ruhiy inqilob uning asl mohiyatini idrok etishiga imkoniyat hozirlaydi.

Istiqlol davri o'zbek romanchiligida bugungi kun in'ikosi bo'lib «Muvozanat» falsafiy romani yaratildi, hozirgi zamon mohiyati falsafiy mushohada etilib, badiiy jonlantirib berildi. Yangilanish va tiklanish davri o'zbek romanchiligida etuk ezuvchilar, ilg'or adabiy metodlar ta'siri kuchaydi. Ammo adabiy ta'sirdan ko'ra ko'proq badiiy taassub kuchliroq namoen bo'ldi. «Muvozanat» realistik roman sifatida modernistik talqin uslubini namoen etgan.

«Romandan o'zga deyarli barcha adabiy janrlarda inson tasvirga olingan voqea-hodisalarga ilova edi. Negaki, bu janrlardagi asarlarda voqea-hodisa –

sabab, inson – oqibat, nari borsa, ishtirokchi tarzida aks ettirilardi. Badiiy tasvir uchun inson shaxsi, uning o'ylari, ruhiyati emas, balki xatti-harakatlari muhim edi. Alohida olingan odam, uning taqdiri, o'ylari, kechinmalari faqat romandagina chuqur va atroflicha tekshirila boshlandi. Uning shaxsiga, tuyg'ulariga e'tibor kuchaydi. Tafsilotlar, voqea-hodisalar inson ruhiyatining natijalari tarzida qarala boshladi. SHu tariqa romanda odam sabab maqomiga ko'tarildi. Unda shaxsning murakkabdan-murakkab, chigaldan-chigal, betartibdan-betartib ruhiyati aks ettirila bordi»¹¹, - deb yozadi adabiyotshunos-olim Q.Yo'ldoshev. Darhaqiqat, inson shaxsiga ijtimoiy tarkib sifatida qarash mafkuradan badiiy tizimga ko'chgandi. Natija o'laroq hatto roman ruhiyati ham muayyan qoliplarga moslashtirildi. Mazkur badiiy shaklning hali kashf etilmagan imkoniyatlari cheksizligi istiqloqlol ma'naviyatida to'la idrok etildi. Janr tabiati miqyos kengligi bilan emas, balki tahlil teranligi, ifoda aniqligi hamda mushohada tiniqligi vositasida belgilanishi ayonlashdi. SHaxsni iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy, axloqiy, genetik aloqadorlikda tadqiq etishga moyillik, uning ruhoniyligini yaxlit holda anglash va anglatishga intilish etakchi estetik tamoyillarga aylanayozdi. Romaniy tafakkur tadrijini qahramonlar miqdori emas, taqdirlar va e'tiqodlar rang-barangligi uyg'unligi tashkil eta boshladi. Voqea, g'oya va mafkuraning alohida inson shaxsi ruhiyati tasviriga yo'naltirilganligi shundan dalolat beradi.

Binobarin, yozuvchi «Muvozanat»da o'tish davri qiyinchiliklarini har xil kasb egalari ruhoniyligini, jamiyat va hayotda tutgan o'rni, mavqei, maslagi bilan ochib berishga urinar ekan, ularning adashish sabablarini xilma-xil voqea-hodisalar misolida, hamda tarixning (jamiyatning, mafkuraning) inson qismatiga muhrlagan takdirini ko'rsatishni ham o'ziga xos tarzda chizishga erishadi. Darhaqiqat, ayni insonga xos tafakkur olam va odam, umuman borliq, yashashning maqsadini anglashga urinadi. Lekin har kim o'zicha hukm chiqaradi, qaror qabul qiladi. Romanda ana shu jihatlar kitobxonni to'lqinlantiradi. Amaldor – Said, tadbirkor – Mirazim, ziyoli – YUsuf tiynatini xilma-xil taqdir va tafsilotlar, kechinma, hodisalar nuqtai nazaridan ifoda etgani shular jumlasidandir.

¹¹ Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. –Т.: Янги аср авлоди, 2006. –Б.69.

«Muvozanat»da ayni ruh xotirjamligi, xalovati to'g'risidagi falsafa va hayot mohiyati bosh qahramon YUsuf timsolida ochib berilishi roman mavzularini to'liq idroklaydi.

Romaniy tafakkur komponentlari asar sujet chizig'ini tavsiflaydi. Bunda e'tiqod va iroda, mas'uliyat va matonat, muhabbat va razolat kabi inson fe'liga xos tushunchalar birinchi planda yozuvchi uslubiy manerasida maromiga etadi. Ijodkor milliy qadriyatlar gavhari xususida so'z yuritar ekan, inson irodasini ana shu azim qadriyatlarga munosabatida chizishga urinadi. YUsuf – ziyoli. Ammo uning ko'ngil xotirjamligi zamon taraqqiyoti, o'sish-o'zgarishlari oqibatida sinib chilparchin bo'ladi. Biroq inson sabru irodasi bu kabi ziddiyatlarga duch kelganida o'zini ushlab qolishi juda ham zarur. YUsuf esa aynan, qo'lidan boy berilgan orzulari bag'rida ichikadi, siniq va aftoda holga tushadi. Lekin inson xatti-harakatlari hamma vaqt mag'lubiyat sari etaklayvermaydi.

YUsuf hayotining bir maromda muvozanatda kechishi akasi Amir bilan bo'lgan suhbat-munozarada yanada yorqinroq mohiyat kasb etadi. YUsuf akasi Amir bilan ochiq bahs-munozaraga qurar ekan, asosli manbalarga o'z kuzatishlariga tayanib hukm-xulosalar chiqarishga kirishadi:

«...Hammaning nomidan gapirishga aslo haqqim yo'q. Xullas, har qanday dinning asosida insonni yaxshi bo'lishga, yaxshilik qilishga, o'zingga ravo ko'rganingnigina o'zgaga ravo ko'rishga chaqirib yashash mavjud. Islomda bu narsa Ollohning birligi va Muhammadning payg'ambarligiga suyanilgan holda tushuniladi. Chunki dunyoda muayyan qonun-qoidalarga asoslangan, tinchligu faravon hayotni ta'min etuvchi *Oliy Nizomga* to'la-to'kis ehtiyoj mavjud. Aka, nazarimda, har kim ana *u Oliy Nizomning* hamma joyda qaror topishi uchun o'z ulushini qo'shishi zarur. Unga rahna solmasligi kerak...»(1-54 b).

YUsuf tushuncha va qarashlarini shu tarzda ifodlar ekan, akasi Amir bunday paytlari ham o'z fikrlarida sobit qolishga tirishadi. U ukasining gapini inkor etib, «*har qancha vaj-karson ko'rsatmagin, Xudoning farz qilganlari o'z o'rnida qoladi*» deydi. Bu xil o'y-mushohadalar romanning birlamchi mohiyatida hayotda asl muvozanatga erishish uchun qanday yo'l tutmoqlik kerakligi ham to'laligicha

tasvirlanadi. Hamda har bir personaj timsolida real mohiyat kasb etadi. Munaqqid Y.Solijonov e'tiroficha: «Romanning asosiy qahramoni YUsuf timsolida o'tkinchi hayot kemasida omonat chayqalayotgan odamlarning botinan va ohiran kurashi, bu yo'lda qiyinchilik bilan bo'lsa-da, o'zlikni anglash jarayoni aks ettiriladi. YUsuf o'z-o'zi bilan qattiq kurshadi. Natijada ilmga, halollikka intilgan YUsuf oxiri mol-dunyo hamda nopoklik yo'lidan ketayotgan YUsufni engadi. Bu jarayon osonlikcha ro'y bermaganligi asardagi Mirazim, Said, Amir obrazlarining qiyosiy talqinida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi»¹⁴. Darvoqe, roman xalq hayotining ijtimoiy-siyosiy-ma'naviy-ma'rifiy qatlamlarini, inson botinidagi ro'y berayotgan inqilobiy hodisalarni tasvirlashga mas'ul janr. Chunki, so'z – inson tashqi va ichki olamidagi ziddiyatlarni, ruhiy jarayonlarini ifoda etadi. Dunyoning o'zgarishi, ekologik muammolar ham inson orzu-umidlariga rahna soladi. Ko'nikish esa har kimda har xil kechadi. Birovlar silliqlikka hayot oqimida o'z o'rnini topib ketaveradi. Ba'zilar axloqiy aqidalarga jiddiy e'tibor qiladigan, uning qalb dardi, insoniyat dardi ekanligini sidqidildan tushunadiganlar uchun oson ish bo'lmagan hech bir zamonda. Agar asarning bosh qahramoni YUsuf shundaylar, ya'ni oson ko'nikuvchi shaxslarning biri bo'lganida nima ro'y berardi? Demak, yozuvchi kontseptsiyasi buyuk davlatning buyuk shaxsi bo'lishni to'la namoyon etmoqda. Mirazim va Saidga o'xshab bir yumalab o'zga bir sohaga o'tib ketmaganligi, uni butun umri bo'yi e'tiqod qilib kelgan o'z olami va muvozanati sari talpinishga chorlab keladi. Bu muvozanatning bir uchi YUsuf qadami tegib turgan zaminga bog'lansa, ikkinchisi esa milliy va umuminsoniy qadriyatlar bir uzvi sanaladi. Binobarin, asar mohiyatidagi turfa ziddiyatlar oqibat jamiyat kelajagi uchun mantiqiy urg'u berayotganligi alohida tahsinga loyiq ishdur.

Psixologizm bugungi davr adabiyotining bosh omiliga aylanib borayotganligini boshqa adiblar ijodida ham kuzatamiz. SH.Xolmirzaevning «Dinozavr», X.Do'stmuhammadning «Bozor», SH.Bo'tavening «SHox», Luqmon Bo'rixonning «Jaziramadagi odamlar» kabi romanlarida bosh qahramon

¹⁴ Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Т.: «Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона», 2009. 140-бет.

psixikasini yoritish orqali davr ruhiyatiga ham o'ziga xos chizgilar beradi. Mohiyatan olib qaraydigan bo'lsak, so'nggi o'n yilliklar ijodiy mahsuli bo'lgan ushbu romanlarda «Dinozavr»dagi Mahkam, «Bozor»dagi Fozilbek kabi obrazlarni «Muvozanat»dagi YUsufga qiyoslash mumkin. Ayni ushbu obrazlarning o'z yashash tarzi va hayoti mavjud. Lekin U.Hamdamning ifoda tarzi zinhorba-zinhor yuqoridagi adib romanlariga taqlidan yaratilgan degan xulosa kelib chiqmaydi. Adib zamon va ziyoli munosabatiga, zamondosh inson ruhiyatiga, jamiyatdagi ijtimoiy adolat tamoyillarini alohida, yakka shaxs vijdoni va iymon prizmasi orqali kuzatadi. Hamda xarakter ma'naviy botinini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan vobastalikda tasvirlay boradi. Bu xususiyat esa, romandagi ruhiyat iqlimini to'laqonli ifodalashga zamin hozirlaydi. Munaqqid U.Normatov e'tiroficha, romanda uchta o'lim tasviri bo'lib, birinchisi, YUsufning tog'asi Muhammadjon akaning vafoti, ikkinchisi o'z o'g'li Abdullajonning, uchinchisi esa, Amirning turmush o'rtog'i Gulshodaning vafoti g'oyat dardchil, ishonarli qilib tasvirlangan. Kitobxon avvalo og'riqning zo'ridan bir qisim bo'lib qolgan o'g'li Abdulloning vafotini juda og'ir qabul qiladi. Romanda shifoxona tasviri, unadgi shafqatsiz hayot, shifokorlarning maddoh va nayrangboz, firibgarligi jonli lavhalarda real mohiyat kasb etadi. Ayniqsa, nevarasi Abdulloning so'nggi lahzalarini quyidagicha chizishga erishgan:

«- Karidorga chiqib turing. Tayyor bo'lganda chaqiramiz.

YUsufga bu gap xuddi yurakka kirgan nashtardek ta'sir qildi.

- Nima tayyor bo'lganda ablah!.. – u vajohat bilan unga tomon ikki qadam qo'ydi.

- Haligi... harholda otasiz, o'g'lingiz qiynalib jon berayotganini ko'rmang, deyman-da... Keyin bu erda begonalarining turishi mum... - uning gapi og'zida qoldi. CHaqmoqdek tekkan musht zarbidan gandaraklab borib, orqasidagi tumbochkaga qo'shilib ag'anadi...»(1-146 b).

«Xarakterni uning psixikasisiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki qahramon ruhiyatining tahlili – xarakterning yaxlitligini va to'laqonliligini ta'minlaydi(H.Umurov). YOzuvchi bu kabi dahshatli manzarani qalamga olar

ekan, YUsufning ruhiyatidagi sinishlarni jamiyatdagi hodisalar bilan bog'laydi. Negaki, bu erda inson tabiatidagi mehr-shafqat o'rinini egallagan xudbinlik va molparastlik kasalining etilish sababini o'tmish asoratlarining «izi» deb tushuntirishga undaydi. YUsufning og'ir iztiroblar ichida qiynalib yashashi, oilasidan, ko'zining oqu qarosi o'g'lidan ajralib qolishi uning hayotida, ko'nglida o'chmas iz bo'lib qoladi. Biroq YUsuf o'z hayotini tubdan o'zgartirishga kirishar ekan, yozuvchi romandagi boshqa personajlarni unga saboq uchun ko'zgudek tutishni maqsad qilagini shubhasizdir.

Romanda yana bir personaj borki, u ham xuddi Amirga o'xshab o'z muvozanatini yo'qotadi. Qalbidagi barcha ezguliklar olis xotiradagina qolgan, begonalik tuyg'usi tobora teranlashib ichkilikka berilgan Ergash ruhan parchalanishga mahkum ekanligi ayonlashadi. Qolaversa, Ergash taqdiri romanda tutgan mavqeiga ko'ra YUsuf xarakterining shakllanishiga ta'sir etuvchi omil vazifasini o'taydi. Ergash fojeasi qiyofasi o'zgargan zamon tabiatini, shiddat bilan turlanib, tuslanib borayotgan voqelik, yangi ijtimoiy-siyosiy muhitni anglamaslikdan kelib chiqadi. Yangi muhit yangicha yondashuv va o'ziga xos qadriyatlarni talab qilishini u to'la anglab etolmaydi. SHu sabab, o'z hayotini ichkilikka berilib, tamomila izdan chiqaradi. Bu kabi jixatlar romanning aksariyat qahramonlari taqdirida, botiniy olamida kechgan g'alayonlarda bo'y ko'rsatadi. YUsuf mushohadalarida esa tobora taranglashib, ruhiga engillik, irodasiga kuch-quvvat, xatti-harakatlariga qat'iyat bag'ishlaydi. Muallif mahorati shundaki, voqelik bir nechta badiiy o'lchamda yagona g'oyaviy-badiiy markazda uyushadi. E'tiborli jihati, ruhiy inqilob muayyan vaqt oralig'ida ham tuyg'u, ham ongda kechadi. Binobarin, «Muvozanat»da tafsilot, vaziyat hamda holatlar bosh obraz atrofida uyushar ekan, chigal vaziyatlarda ham, o'zligini, e'tiqodi va e'timodini saqlab qolishga kirishgan YUsuf har qanday ziddiyatlardan etarlicha saboq chiqarib yashashga intilayotgani yozuvchi ijodiy kontseptsiyasi mag'zidir. Aniqrog'i, YUsuf xarakterini ifodalovchi manzaralar romanning badiiyatini ta'minlashga qaratilgan. SHu bois, «Muvozanat»ni sof ruhiy-falsafiy romanlar sirasiga qo'shish mumkin.

YUsuf – ziyoli, dedik. Zahro bilan bo'lgan munozara uning keyingi hayotini yaxshilash uchun bir ko'prik vositasi xolos. Ana shu ko'prikdan OMON o'tgan qahramon kelajagi o'sha nuqtadan turib boshlanadi. Negaki, adabiy talqinda inson umidlari jilvalanar ekan, yozuvchi idroki jamiyat hayotidagi uzil-kesil muammolarning sababini ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. Realistik tasvir imkoniyatlari tadrijiy takomillishib, evrilib borayotganligini Ulg'bek Hamdamga zamondosh ijodkorlar izlanishlarida ham uchratamiz. Bu xildagi o'zgarishlar istiqlol davri romanchiligida asosiy yo'nalish – romaniy tafakkur imkoniyatlarining naqadar cheksizligini, turfaligi bilan belgilanadi:

«SHu bilan birga, agar haqiqatning ko'ziga tik qaramoqchi esak, bunday sirlar o'zgalarda ham bo'lishi mumkin-ku, - derdi Zahroning ichida kimdir. – U holda odamlar tashqaridan qanday ko'rinsalar, ichkarida ham shunday emas ekanlar-da. Bundan chiqdiki, biz ikkiyuzlamachilarmiz. Dilimizda boshqayu tilimizda boshqamiz. Odamzod o'z qo'llari bilan bunyod etgan jamiyat hali uning barcha savollariga javob topolgani yo'q. Bizning asl istaklarimiz, ehtiyojlarimiz tashqariga chiqolmay, unga yo'l topolmay bo'g'ilib o'ladi. Lekin biz atrofga jilmaymoqchi bo'lamiz, chorasizlikdan kelgan yaralardan bag'rimiz qonga to'lib ketgan bo'lsa-da, yuzimizga baxtiyorlik tabassumini chizmoqqa tirishamiz. Ha, biz munofiqlarmiz. Avvalo o'zimiz, o'z tabiatimiz oldida tovlamachilik qilamiz. SHuning uchun «Qo'ynimda bir yoru qo'ynimda bir yor», deya odamzodning asl holini birgina misraga abadul-abad parchinlab tashlagan shoirga dilimiz jo'r bo'lsa-da, tilimiz uni axloqsizlikda ayblashdan charchamaydi»³⁰.

YUqoridagi parchada o'z eriga nisbatan xiyonatga qo'l urgan Zahro tabiatidagi evrilishlarni zukko kitobxon to'la anglab etadi. Lekin shu o'rinda savol tug'iladi: Zahro o'z eriga ziyonat qildimi yoki o'zligigami? Javob esa har qanday taroshlab aytilmasain, mohiyatan bir nuqtada aks etadi. Avvalo Zahro o'ziga xiyonat qildi. Negaki, shohona hayotda yashayverib, hayhotdek hovlida tanholanib, yakkalanib, yolg'izlanib qolgan Zahroning o'y-mushohadalari YUsufdek ziyoli va aqlli insonga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj shundan iborat ediki,

³⁰ Kўrsatilgan адабиёт, 231-бет.

eri Mirazimning ayoliga bir oddiy narsadek qarashi, bee'tiborligi natijasida kun o'tgan sayin ulg'ayib, borlig'ini parokanda aylay boshlaydi. Ayni shu tanholik qahramon istak-imkoniyatlarini «o'z dili»ga yaqin YUsuf bilan ro'baro' qilishga undaydi.

Bugungi roman qiyofasi g'arbona asosni sharqona ruhda idrok qilish bilan ham o'ziga xoslikni tayin etadi. Bunga monand, muayyan shaklu shamoyil kasb etib, adabiy yo'nalishlari anchagina barqarorlashgan yaqin yigirma yillik o'zbek romanlarida davr ruhiyati va ijodkor falsafasi uyg'unligi, ilg'or romanchilik maktablarining sezilarli ta'siri borligini ham unutmasligimiz kerak, albatta! SHu jihatdan izohlaydigan bo'lsak, 80- yillardan boshlab hayotni yangicha tafakkur tarzida tasvirlash boshlandi. Lirizm o'rnini, izchil realizm egalladi. Roviylar timsoliga bo'lgan e'tibor kuchaydi. «Muvozanat»da aynan realizm bilan modernizm qorishib ketishini kuzatamiz. Ifoda tarziga ko'ra realistik, shakl-mohiyat nuqtai nazaridan esa modern talqinlar ko'zga tashlanadi.

Adabiyotshunos H.Umurov alohida qayd etganidek: «Psixologizmning dinamik analitik printsiplarining badiiy adabiyotda shaxs psixologiyasini ochish yo'llari deb tushunsak, bu yo'llar psixik narsaning ob'ektiv va sube'ktiv yashash formalaridir. YOzuvchi albatta xarakter va uning psixikasini yaratish jarayonida bu printsiplar chegarasidan chiqib keta olmaydi bu o'z navbatida psixologizm printsiplarining tarixiyligini va ob'ektivligini isbot etadi» deydi. Bunday xususiyatni «Muvoznat»ga taqqoslasak ham bo'ladi. Xullas ushbu romanda juda ko'plab personajlar ruhiyati yaxshi ochib berilgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Yo'ldoshev Q. O'zbek modern adabiyoti: ildizlar, printsiplar va xususiyatlar // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2004. – №2-3. – B. 4-12
2. Yo'ldoshev Q. Ochilmagan g'unchalar chiroyi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2005. – 10 iyun.
3. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 152 b.
4. Yo'ldoshev Q. YOniq so'z. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2007. – 546 b.
5. Do'stqoraev B. Cho'lpon: Gazeta ettinchi davlat // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2004. – 22 oktabr.
6. YOqubov O., Normatov U. Oybek dahosi // YOshlik. – Toshkent, 1985. – №5. – B. 3–7.
7. Jabbor A. O'z davrining mashhur asari // YOshlik. – Toshkent, 1990. – №11. – B. 74-78
8. Joys J. Navqiron san'atkorning siyrati // Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2007. – №3-4. – B. 3-98
9. Jo'raqulov U. Asl adabiyotning nash'unamosi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – Toshkent, 2000. – 27 oktabr.
10. To'raev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – Toshkent: Universitet, 2001. – 166 b.
11. Umurov H. Tahlil san'ati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – 143 b.
12. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: SHarq, 2002. – 252 b
13. Umurov H. Saylanma. – Toshkent: Fan, 2007. 1– jild. – 205 b.
14. Umurov H. Saylanma. // Adabiy-tanqidiy tadqiqotlar. 2 – jild. – Toshkent: Fan, 2007. – 206 b.
15. Umurov H. Saylanma. // Xotiralar, qatralar, saboqlar, hajvlar. 3 – jild . – Toshkent: Fan, 2007. – 204 b.
16. Umurov H. Saylanma. // Ehtiyoj tafti. 5 – jild. – Samarqand: 2011. – 214 b.